

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand davlat arxitektura-qurilish



universiteti rektori

Ch.Dj.Turkyilmaz

2023 y.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023 yil 24-noyabrdagi 507-sonli buyrug'iiga asosan Mirzo Ulug'bek nomidagi
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti talabalarining qishki ta'til
davrini mazmunli o'tkazish maqsadida “Ko'chmas mulk iqtisodiyoti”
fanidan onlayn olimpiada o'tkazish to'g'risidagi
NIZOM**

1. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom Samarqand davlat arxitekturu-qurilish universiteti (keyingi o'rinnlarda - SamDAQU) “Qiymat injiniringi va ko'chmas mulk ekspertizasi” ta'lif yo'naliшining 3 va 4-bosqich talabalari o'rtasida “Ko'chmas mulk iqtisodiyoti” fanidan onlayn olimpiadani tashkil etish, o'tkazish hamda olimpiada g'oliblarini rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

1.2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

onlayn olimpiada - talabalarning bilimlarini sinovdan o'tkazish hamda faqat axborot texnologiyalari (kompyuter, planshet, telefon va boshqalar) orqali amalga oshiriladigan olimpiada;

olimpiada taqvimi - talabalarning qishgi ta'tili vaqtida o'tkazilishi rejallashtirilgan fan olimpiadasi;

olimpiada g'oliblari - onlayn olimpiadada 1, 2, 3-o'rnlarni qo'lga kiritgan talabalar;

axborot tizimi - “Ko'chmas mulkni boshqarish” kefedrasining olimpiadani tashkil qilish va o'tkazishga mo'ljallangan* maxsus telegram guruhi hamda SamDAQU rasmiy sayti va telegram kanali.

1.3. Fan olimpiadalari yagona ilmiy-uslubiy yondashuv asosida adolatlilik, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida o'tkaziladi.

1.4. Olimpiada uchun test topshiriqlari (keyingi o'rinnlarda - nazorat materiallari) tayyorlash, iqtidorli talabalarlar zaxirasini shakllantirish hamda olimpiadani o'tkazish bilan bog'liq ishar “Ko'chmas mulkni boshqarish” kefedrasining professor-o'qituvchilari tomonidan muvofiqlashtiriladi.

1.5. Talabalar olimpiadada o'z xohishlariga ko'ra, ixtiyoriy ravishda qatnashadilar.

1.6. Olimpiadaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– o'quvchilarning o'quv jarayonida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va tizimlashtirish, bilim, ko'nikmalarini namoyish etish va ulami nostandard vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish;

- talabalarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash va chuqurlashtirish;
- mustaqil ishlash va kasbiy fikrlashni rivojlantirish;
- talabalarning bajarilgan ish uchun mas'uliyatini oshirish, kasbiy bo'limgan faoliyat sohasidagi muammolarni mustaqil va samarali hal qilish qobiliyati;
- kasbiy bo'limgan muammolarni hal qilish qobiliyati bilan bog'liq kompetentsiyani rivojlantirish. ;
- iqtidorli yoshlarni aniqlash.

2. Olimpiadani tashkil etish va o'tkazish

2.1. Olimpiadani tashkil etish va o'tkazish "Kochmas mulk iqtisodiyoti" fani bo'yicha olimpiada komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Olimpiadani o'tkazish uchun quyidagi funksiyalarni bajaradigan tashkiliy qo'mita tuziladi:

1. Olimpiadaning bosqichlari va vaqtini aniqlash.
 2. Hakamlar hay'ati ishini shakllantirish va tashkil etish.
 3. Olimpiadaning moddiy-texnik bazasini tashkil etish.
 4. Onlayn olimpiadani o'tkazish.
 5. Xulosa chiqarish va ishtirokchilarni taqdirlash.
- 2.2. Bajarilgan ish natijalarini baholash uchun quyidagi funksiyalarni bajaradigan hakamlar hay'ati tuziladi (1-ilova):
1. Olimpiada davomida ishtirokchilarning ishini nazorat qiladi;
 2. Bajarilgan ish natijalarini baholaydi;
 3. G'oliblarni aniqlaydi va sovg'alarni tarqatadi;
 4. G'oliblarni taqdirlash bo'yicha takliflar tayyorlaydi.

3. Olimpiadani o'tkazish tartibi

3.1. Olimpiada "Ko'chmas mulk iqtisodiyoti" fanidan o'tkaziladi. Olimpiadada "Qiymat injiniringi va ko'chmas mulk ekspertizasi" yo'nalishining 3 va 4-bosqich talabalarini ishtirok etadilar. Olimpiada 2023-yil 27- dekabrda onlayn o'tkaziladi.

3.2. Test topshiriqlari "Ko'chmas mulk iqtisodiyoti" fanining asosiy bo'limlari va mavzularini bo'yicha tuzilgan.

3.3. Test sinovidan maqsad "Ko'chmas mulk iqtisodiyoti" fanidan "Qiymat injiniringi va ko'chmas mulk ekspertizasi" yo'nalishining 3 va 4-bosqich talabalarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarga javob beradigan nazariy materialni o'zlashtirish sifatini tekshirishdan iborat. Testlar 4 ta javob variantidan iborat bitta tanlovga ega 50 ta test topshiriqlaridan iborat. Har bir to'g'ri javob uchun 2 ball beriladi, maksimal ball 100. Test natijalariga ko'ra ishtirokchilardan eng ko'p ball to'plagan 3 nafar ishtirokchi g'olib deb tan olinadi.

4. Topshiriqlarning bajarilishini baholash mezonlari

4.1. 50 ta test topshiriqlarini yechish, har bir to'g'ri javob 2 ball, maksimal ball – 100 ball.

5. Xulosa chiqarish va g'oliblarni taqdirlash

5.1. Xulosa olimpiada yakunida amalga oshiriladi va test uchun ballarni yig'ish orqali shaxsiy natijalari hisobga olinadi. Test natijalari hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan baholash varaqalarida qayd etiladi. Hakamlar hay'ati test natijalariga ko'ra, eng yuqori ball to'plagan g'oliblarni (1, 2, 3-o'rinnlar) aniqlaydi.

5.2. Olimpiada g'oliblari va sovrindorlari sertifikat va sovg'alar bilan taqdirlanadilar. Olimpiada natijalari tahlil qilinadi va bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

6. Yakunlovchi qoidalar

6.1. Olimpiada g'oliblarini taqdirlash marosimlari SamDAQU rahbariyati tomonidan tantanali ravishda tashkil etiladi.

"Ko'chmas mulk iqtisodiyoti" fanidan
onlayn olimpiada o'tkazish to'g'risidagi
NIZOMga 1-ilova

"KO'CHMAS MULK IQTISODIYOTI" FANIDAN ONLAYN OLIMPIADANI O'TKAZISH BO'YICHA KOMISSIYA VA APELLATSIYA TARKIBI

T/r	F.I.SH.	ISH JOYI VA LAVOZIMI
BAHOLASH KOMISSIYASI TARKIBI		
1.	Turdibekov Yusuf	"Ko'chmas mulkni boshqarish" kafedrasi mudiri, <i>komissiya raisi</i>
2.	Abduxamidov Abilkosim	"Ko'chmas mulkni boshqarish" kafedrasi dotsenti, <i>komissiya raisi o'rbosari</i>
3.	Xolikulov Zayniddin	"Diller sarmoya" MCHJ direktori, <i>komissiya a'zosi</i>
4.	Nishonov Nizomiddin	"Ekonomiks standart" MCHJ direktori, <i>komissiya a'zosi</i>
5.	Giyasova Zebo	"Ko'chmas mulkni boshqarish" kafedrasi o'qituvchisi, <i>komissiya a'zosi</i>
APELLATSIYA KOMISSIYASI TARKIBI		
1.	G'aniyev Karim	Ko'chmas mulkni boshqarish" kafedrasi professori, <i>komissiya raisi</i>
2.	Bayzakov Abjalil	"Ko'chmas mulkni boshqarish" kafedrasi dotsenti, <i>komissiya raisi o'rbosari</i>
3.	Murtazayev Shuxrat	"Diller sarmoya" MCHJ baholovichisi, <i>komissiya a'zosi</i>
4.	Ibayev Islombok	"Special value" MCHJ direktori, <i>komissiya a'zosi</i>
5.	Aliyeva Nigora	"Ko'chmas mulkni boshqarish" kafedrasi o'qituvchisi, <i>komissiya a'zosi</i>

"Ko'chmas mulkni boshqarish"
kafedrasi mudiri v.b.

Yu.I.Turdibekov